
**LAPAROSKOPIK JARROHLIKNING GINEKOLOGIK AMALIYOTDA O'RNI
VA AFZALLIKLARI.**

Shalankova Olga Evgenievna

*Rossiya Federatsiyasi Federal tibbiyot va
sog'liqni saqlash muassasasi akusherlik va
ginekologiya kafedrasi assistenti*

Annotatsiya. Mazkur bitiruv malakaviy ishida laparoskopik jarrohlikning ginekologik amaliyotda tutgan o'rni, zamonaviy yondashuvlar, texnologik rivojlanishlar, diagnostik va davolashdagi afzalliliklari yoritilgan. Ishda laparoskopik jarrohlik orqali amalga oshirilgan asosiy ginekologik operatsiyalar, ularning samaradorligi va an'anaviy ochiq jarrohlik bilan solishtirmali tahlili o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari asosida mazkur usulning ayollar salomatligini saqlash va reabilitatsiyani tezlashtirishdagi o'rni ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Laparoskopiya, ginekologik operatsiyalar, invaziv jarrohlik, bachadon, tuxumdon, reabilitatsiya, afzalliklar.

So'nggi yillarda tibbiyotda, xususan, ginekologik amaliyotda minimal invaziv usullar jadal rivojlanib, keng qo'llanila boshladi. Ulardan eng samaralilaridan biri bu laparoskopik jarrohlikdir. Laparoskopik usul orqali qorin bo'shlig'iga kichik kesmalar orqali kirib, videokuzatuv yordamida turli xil operatsiyalar bajariladi. Bu usul estetik, funksional, reabilitatsion va xavfsizlik nuqtai nazaridan ko'plab afzalliklarga ega.

Ginekologiyada laparoskopik jarrohlik bepushtlik, tuxumdon kistalari, bachadon bo'yni va tanasi miomalari, endometrioz, tashqi homiladorlik, tuxumdon burilishi kabi holatlarda keng qo'llaniladi. Ushbu usul bemorlarning sog'ayish muddatini qisqartirib, og'riq sindromini kamaytiradi va sog'lom to'qimalarga minimal zarar yetkazadi. Shu bois, laparoskopik yondashuv bugungi kunda ginekologik jarrohlikning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Laparoskopiya jarrohlikda 20-asrning o'rtalaridan boshlab rivojlana boshlagan bo'lsada, ginekologik amaliyotda uning faol qo'llanilishi oxirgi 30 yillikda jadallik bilan kengaydi. C. Nezhat, H. Reich, A. Wattiez kabi yetuk mutaxassislar bu usulning asoschilaridan hisoblanadi. Bugungi kunda laparoskopik usullar orqali ginekologik muammolarning aksariyatini xavfsiz, estetik va kam invaziv tarzda hal etish imkoniyati mavjud.

Ilmiy manbalarda laparoskopiyaning quyidagi ustunliklari qayd etiladi: kichik kesma (1 sm gacha), kam qon yo'qotish, past og'riq sindromi, shifoxonada kamroq yotish, tez

reabilitatsiya, kam infeksiya xavfi. Shuningdek, laparoskopiya yordamida tashxis va davolash bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi mumkin, bu esa bemor uchun vaqt va resurs jihatidan foydali hisoblanadi.

Tuxumdon kistalari, subseroz miomalar, salpingoooforektomiya, adgeziolizis, endometrioz o'choqlarini yo'q qilish kabi operatsiyalar laparoskopik usulda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Turli davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu usulning xavfsizlik darajasi yuqori ekani, bemorlar orasida asoratlar soni kamligi tasdiqlangan.

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda ijobiy siljishlar mavjud. Respublika ixtisoslashtirilgan ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi, viloyat ko'p tarmoqli shifoxonalari zamonaviy laparoskopik jihozlar bilan ta'minlanmoqda, mutaxassislar malakasini oshirish kurslarida qatnashmoqda.

Xulosa

Olib borilgan tahlil va kuzatuvar shuni ko'rsatadiki, laparoskopik jarrohlik ginekologik amaliyotda yuqori samaradorlikka ega, xavfsiz va bemorlar uchun qulay hisoblanadi. Bu usulning asosiy afzalliliklari – kam invazivlik, tez sog'ayish, estetik natijalar va past asoratlar ko'rsatkichidir. An'anaviy ochiq jarrohlikka nisbatan laparoskopiyaning ustun jihatlari uni amaliyotda ustuvor usulga aylantirmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, laparoskopik usulda bajarilgan operatsiyalarda qon yo'qotish kam, og'riq sindromi yengil, shifoxonada yotish muddati qisqa bo'ladi. Shuningdek, bemorlarning kundalik faoliyatga qaytish muddati ham ancha tez kechadi.

Shu asosda aytish mumkinki, laparoskopik jarrohlik ginekologik kasalliklarni samarali, zamonaviy va bemorlar uchun xavfsiz usulda davolash imkonini beradi. Uni yanada keng joriy qilish, tibbiyat xodimlarining malakasini oshirish va texnik bazani mustahkamlash orqali sog'liqni saqlash tizimining sifati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nezhat C., Nezhat F., Nezhat C. "Operative Gynecologic Laparoscopy: Principles and Techniques". McGraw-Hill, 2000.
2. Reich H., DeCaprio J., McGlynn F. "Laparoscopic Hysterectomy". Journal of Gynecologic Surgery, 1989.
3. Wattiez A., Soriano D., Cohen S. "Laparoscopic management of gynecologic emergencies". Best Practice & Research Clinical Obstetrics and Gynaecology, 2004.
4. Kho R. M., Akl M. N., Jones J. O., et al. "Incidence and characteristics of patients with intra-abdominal adhesions at time of laparoscopic surgery". Journal of Minimally Invasive Gynecology, 2009.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "Minimal invaziv ginekologik jarrohlik bo'yicha klinik tavsiyalar", Toshkent, 2022.